

TOPONIMIKA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Aliyeva Shahnozabonu

Qo'qon davlat pedagogika inistituti tabiiy fanlar fakulteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda toponimika yerning tili deb tan olingan toponimlarning, ya'ni yer-suv nomlarining ma'lum makon va davrda muayyan tillarda yaratilgan lisoniy, milliy, tarixiy va geografik yodgorliklar ekanligi haqida to'laroq bilim berishdir. Fanning vazifalari-toponimlar haqida ularning o'rganilish tarixi, toponimika yosh fan bo'lsada toponimik tadqiqotlar qadim zamonlardan, antik dunyodan boshlanganligi haqida, arab geograflari, turkistonlik allomalar, zamonaviy toponimistlar haqida ma'lumotlar berish ahamiyati haqida xulosalar yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Fan.Toponimika. tarixiy toponimlar. O'zbekiston*

Toponimika ([lotincha](#) *topos* — joy, *onoma* — ism) — jo'g'rofiy nomlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi va to'g'ri yozilishini o'rganuvchi fan.

Toponimika (yun. *topos* — joy va *onyma* — ism, nom) — onomastikatt joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiyetimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa [toponim](#) deb ataladi.

Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh

soʻzlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos boʻlgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar koʻproq saqlangan boʻladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashgʻuloti, qazilma. boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

T. geogr., tarix, etn. bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalar)ni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi, chunki baʼzi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni oʻzgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, koʻpincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi.

T. xalqlarning tarixiy oʻtmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning oʻtmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yoʻllari va sh. k. geografiyasini tavsiflashga yordam beradi. Toponimlarning amaliy transkripsiyasi, ularning dastlabki asosga koʻra hamda bir xil yozilishi, boshqa tillarda berilishi T.ning amaliy jihati hisoblanadi.

Toponimlar yirik yoki mayda obʻyektlarning nomlari ekanligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga ajratiladi: makrotoponimlar — keng hududlar, katta obʻyektlar (materiklar, okeanlar, togʻlar, choʻllar, daryolar, shaharlar, qishloqlar va shu kabi)ning atokli otlari; mikrotoponimlar — kichik obʻyektlar (jarliklar, tepaliklar, quduqlar, koʻchalar, qoʻrgʻonlar va shu kabi) ning atokli otlari. Lekin toponimlarni bunday tasnif qilish shartli, chunki koʻpincha makrotoponim bilan mikrotoponimni farqlash qiyin.

Turli xil geografik obʻyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda T.ning quyidagi boʻlimlari ajratiladi: gidronimika — suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, koʻl kabilarning nomlarini oʻrganuvchi soha; oykonimika — aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, koʻcha, ovul, qoʻrgʻon nomlarini oʻrganuvchi soha; oronimika — yer yuzasining relyef shakllari: tof, choʻqqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini

tekshiradigan soha; urbanonimika — shahar ichidagi har qanday ob'yektlar nomlarini o'rganuvchi soha; kosmonimika — Yerdan tashqaridagi ob'yektlar (osmon jismlari) nomlarini o'rganuvchi soha va boshqalar.

So'nggi 40—45-yil ichida T.ning nazariy va amaliy asoslari ishlab chikldi, T. sohasida bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, o'zbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, 3. Do'simov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiyasi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi, T.ga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. H. Hasanovning "Yer tili" (1977), S. Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi" (1978), 3. Do'simovning "Xorazm toponimlari" (1985), T. Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" (1988), N. Oxunovning "Joy nomlari ta'biri" (1994) va boshqa shular jumlasidandir. Toponimikaning boshqa fanlar bilan bogliqligi.

Toponimika integral ilmiy vo'nalish. majmuaviy fan. LJ geografiya. filologiya (lingvistika) va tarix kabi fanlarning manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lib, ularni mujassamlashtirib rivojlanmoqda. Bu holat toponimikaning egallagan mavqei va fanlar tizimidagi o'rni haqida turlicha qarashlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Har holda shunisi aniqki, har qanday salmoqli toponimik manbalar har uchala fanning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, har bir tadqiqotchi tadqiqot obyekтини o'zining mutaxassisligi nuqtai nazardan o'rganadi.

Geografik kartada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o'rin tutishi hamda joy nomining adreslik funksiyasi til - fakti va tarix - hodisasidan ko'ra muhimroq ekanligini hech bir mutaxassis inkor qilmaydi. Bunga, nom muhim ijtimoiy-siyosiy funksiyani bajarishi, hamda yer yuzasidagi barcha geografik obyektlar uchun oriyentir (mo'ljal) vazifasini bajarishi sabab

bo'lgan. Mazkur fikrni tasdiqlab taniqli toponimist olim T.Nafasov shunday yozgan: «...qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir.

Toponimiva bilan azal-azaldan geograflar, geografiya fani shug'ullanib kelgan. So'ngra bu soha bilan tarixshunoslar, arxeologlar qiziqib, nomning tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liqligi, ularning ma'nosi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalarni tadqiq qilishdi. Hng so'ngida toponimiya tilshunoslikning tadqiqot obyektiga aylandi». To'g'ri, uzoq vaqtlar toponimikani geografik fan, geografiya ilm iga xos ilmiy yo'nalish degan qarash liukmron mavqeda bo'lgan. Bu albatta, o'ziga xos obyektiv va subvektiv sabablar bilan bog'liq. Joy nomi yer sharining ma'lum nuqtasida joylashgan geografik obyektning maxsus yorlig'idir. Dastlab, ularni aholi yashash maskanlari va turli landshaft komponentlarning nomi sifatida geograflar tadqiq qilishgan.

Demak, toponimiva - toponimika fanining o'rganish obyekti bo'lsa, toponim uning tadqiqot predmetidir. Majmuaviylik toponimikaning tabiatida mujassam, fan rivojlangan sari lining bu xususiyati yaqqolroq namoyon bo'ladi. Toponimikaning muhim bir xususiyati, ijobiy tomoni shundaki, tutash fanlar (lingvistika, tarix, geografiya) yutuqlari va usullaridan foydalanish imkoniyatiga, sintez qilish qobiliyatiga ega.

Majmuaviy yondoshuv toponimikani fan sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi va uning ilmiy va amaliy ahamiyati yanada oshiradi. Shu bilan birga, tanning o'rganish obyekti bo'lgan toponimiyaga nisbatan turlicha yondoshish imkoniyati paydo bo'ladi. Toponimik tizimning bir bo'lagi bo'lgan nom turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu sababdan, nomlar majmuasining barcha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilinganda to'g'ri va samarali natijaga erishish mumkin. Demak, toponimik tizimdan ajratib olingan alohida nom ilmiy tahlil uchun asos bo'lolmaydi. Shuning uchun, toponimik tadqiqotlarda geografik nomni hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Boshqacha aytganda, toponimik tadqiqotlarda ko'pincha yaxlit toponimik tizimga e'tibor qaratish kerak bo'ladi, chunki, nom hech qachon yagona, tanho

emas, u o'sha tizimdagi uzun "zanjir"ning bir bo'g'ini hisoblanadi. Shu bilan birga, joy nomlariga takroriylik xos, nom ba'zan murakkab tuzilishga ega bo'lsa, goho tarkibiy qismlarga bo'linib takrorlanadi. Ko'pincha nomning semantikasi, talaffuzi, lisoniy tuzilishi to'g'ri keladi. ammo hamma vaqt ham uning barcha alomatlari birga kelmaydi.

Binobarin, joy nomining barcha o'ziga xos xususiyatlari inobatga olib tadqiq qilinsa, tahlil lo'g'ri va mahsuldor bo'ladi. Bu har qanday toponimik tizimga va har bir nomning paydo bo'lishi va ma'no-mazmunini aniqlashga taaluqlidir. Agar, toponimik tadqiqotlarda tadqiqotchi o'z mutaxassisligini ustun qo'yib ish ko'radigan bo'lsa, unda ko'zlangan maqsadga erishishi qiyin bo'ladi. Chunki, lingvist uchun toponimiya - bu faqat geografik nomlar ro'yxati, tarixchi uchun toponimiya - bu tarixiy hujjatlar va solnomalar ko'rsatgichi, geograf uchun toponimiya - bu geografik kartadagi nomlar yig'indisidir. Shuning uchun. muayyan qonuniyatlar asosida, ma'lum hududda tarixan shakllangan geografik nomlar majmui - toponimik landshaft toponimika uchun to'laqonli tadqiqot obyekti bo'la oladi.

Binobarin. har bir hudud, mintaqaning mavjud toponimik majmuasi, joy nomlari turli nuqtai-nazardan tahlil qilinishi kerak:

- 1) nomning geografik alomatlari: tog', daryo. dasht. cho'l, shahar. qishloq va hokazo;
- 2) paydo bo'lish vaqti va unga turtki bo'lgan sabablar;
- 3) qaysi tilga aloqadorligi va uning lisoniy xususiyatlari;
- 4) mazmuni va etimologiyasi (yunoncha. exupov - haqiqat, so'zning asl ma'nosi va Xoyoq - ta'limot).
- 5) nomning tuzilishi. til qonuniyatlari va imlo qoidalariga to'g'ri kelishi;
- 6) nomning yaratilgan tilida va boshqa tillarda ilmiy jihatdan to'g'ri yozilishi;
- 7) nomning tarqalish hududi, areali. migratsiya yo'llari.

Shu masalaga e'tibor qaratgan belorus toponimika maktabining asoschisi V.A.Juchkevich shun day yozgan edi: "toponimik muammolarni tor mutaxassislik doirasida hal qilish, ishga zarar keltiradi va uning amaliy ahamiyatini pasaytiradi". Bundan xulosa shuki. har qanday toponimik tadqiqotlar

aniq joy bilan bog'langan holda amalga oshirilsa. shunda o'rganilayotgan hudud toponimiyasining o'ziga xos sliakllanish xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq qilinadi.

Toponimik landshaft - geografik landshaft kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yaxlit hududiy toponimiyadir. Landshaft (nemischa. land - yer. shaft - manzara) - turli tabiiy geografik komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha. y a'ni tabiat komponentlarining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga ega bo'lgan hudud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika (o'quvqo 'llanma) / «Navro'z» nashriyoti. -Toshken t, 2017

2.Hakimov Q. M., Toponimika [MatnJ: o'quv qo'llanma/ Q.M. Hakimov, M.T.Mirakmalov. - Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. - 352 b.